

Respublika bolalar kutubxonasi

**Ilmiy-uslubiyot va maktab ARMLari
mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘limi**

**“KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI”
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
qabul qilinganligining 23 yilligiga bag‘ishlangan
uslubiy tavsiyanoma**

Toshkent – 2015

Ushbu uslubiy tavsiyanoma ilmiy-uslubiyot va maktab ARMLari mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘limi tomonidan tayyorlandi.

Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy-uslubiyot kengashining yig‘ilishida 2015-yil ____-oktabrdagi ____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Nashr uchun mas’ul:

Z.Boxovuddinova – Ilmiy-uslubiyot va maktab ARMLari mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘limi sho‘ba mudiri.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag‘ishlangan **“Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”** deb nomlangan uslubiy tavsiyanoma maktab ARMLari mutaxassislari va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati va o‘rni haqida ma’lumotlar yoritilgan. Ushbu uslubiy tavsiyanomada 8-9-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan tadbir ssenariysi berilgan.

***O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni
o‘zida mujassam etgan hujjatdir.***

Islom Karimov

Qonun nima o‘zi?

Buni har kim har xil tushunadi.

Qonun – umumiy qilib aytganda, siz-u bizning ixtiyorimizdan tashqari amalda bo‘lgan kuch. Tabiat qonunlari aynan shunday. Tabiat insonga bog‘liq bo‘lmagan tarzda o‘z qonunlari asosida yashaydi.

Jamiyat qonunlari ham, garchi insonlar guruhi o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettirsa-da, bevosita shaxslar fikri bilan hisoblashib o‘tirmaydi.

Demak, tabiat va jamiyat qonunlari bizga bog‘liq emasmi, biz – odamlar ularni o‘zimizcha o‘zgartirishdek xom hayolga berilmay, aksincha, shu qonunlarni puxta o‘rganish va o‘z xatti-harakatlarimizni qonunlarga moslashtirishga urinishimiz kerak.

Mana, ikki asrdan oshyaptiki, ko‘p mamlakatlarda Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni yanglig‘ qabul qilinadi, boshqa barcha qonunlar shu asosiy qonunga mos ravishda tuziladi (konstitutsiyaviy qonun bundan mustasno).

“Konstitutsiya” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘rnatish, belgilash, tasdiqlash, tuzilish, tuzuk ma’nolarini bildiradi. Dunyoda birinchi Konstitutsiya 1787-yil AQShda qabul qilingan. Yevropada esa birinchi bo‘lib, 1791-yil Polsha o‘z Konstitutsiyasini qabul qilgan.

Har bir davlatning Konstitutsiyasi o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, uning milliy xususiyatlari, an’analaridan kelib chiqadi.

Bugun har qanday davlatga o'z qonunlarining adolatlilik darajasi, insoniyat taraqqiyotining XXI asr boshlaridagi ilg'or aqidalariga qanchalar mosligi, eng muhimi, ana shu kuchda bo'lgan huquqiy qonunlarga nechog'li amal qilinayotganiga qarab baho beriladi.

Shu ma'noda, aytish mumkinki, O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillarida davlatchilikning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Chunki Istiqlolning dastlabki bir yili mobaynidayoq davlatimizning Asosiy Qonuni – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ishlab chiqildi, keng muhokama etildi va 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilindi. Unga mos ravishda yana 500 dan ortiq qonun qabul qilinib, kuchga kiritildi.

Konstitutsiyamiz, avvalo, o'zida milliy xususiyatlarimizni aks ettiradi, ikkinchidan, u jahon andozalariga mos keladi. Biz asosiy qonunimizning har bir bandi, jumlası, ifodasi, so'zi haqida o'ylashimiz, uni tushunib olishimiz, unga amal qilishimiz zarur va shart. Lekin, afsus, ilgari so'z – boshqa-yu, amal – boshqa zamonlardagi quruq siyosatbozlik bizni bunday hujjatlarga nisbatan befarqlikka o'rgatib qo'ygan va ko'plar hozir ham qonunlarimizga nisbatan bepisand munosabatda bo'ladi, hatto, uni buzib, suiste'mol qilib ham yashayveraman, deb o'ylaydi. Bilmaydiki, qonunbuzarlik adolatsizlik urug'ini sochishi tayin. Bu ayrim kimsalar manfaatiga xizmat qilishi mumkindir-u, biroq, yalpi olganda, bunda jamiyat yutqazadi, taraqqiyotning yo'li to'siladi.

Ko'rinib turibdiki, Konstitutsiya u jihatdan ham, bu jihatdan ham bevosita shaxsga – insonga, demakki, uning ma'naviyatiga borib bog'lanaveradi.

O'zbekiston xalqi o'zining muxtor vakillari siymosida Konstitutsiyamizni, uning "Muqaddima"sida qayd etilganidek,

jumladan, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda qabul qilingan. Huddi shu hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat yuksak insoniy ma'naviyat belgisi emasmi?

Xo'sh, biz eng oliy qadriyat deganda nimani tushunamiz? Bu Konsitutsiyamizda qonun tili bilan aniq ifodalab, belgilab qo'yilgan: *“O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanib, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”* (13-modda).

Konstitutsiyamiz har birimizning komillikka cheksiz intilishimizni kafolatlaydi. U davlatimiz va xalqimiz uchun chinakam adolat mezonidir.

Konstitutsiyaga umumiy tarzda “oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, bir tomondan inson va ikkinchi tomondan davlat o‘rtasidagi munosabatlar asoslarini, shuningdek davlatning o‘zini tashkillashtirish va faoliyat ko‘rsatish asoslarini tartibga soladigan huquqiy normalar tizimi”, deya ta’rif berish mumkin.

Qonunlarni bilmaslik ikki tomondan ziyon. Birinchidan, qonundan behabar kishi uni buzishi oson. Ikkinchidan, ba’zi kimsalar boshqalarning qonunni bilmasligidan o‘z qitmir manfaati yo‘lida foydalanadi. Shu boisdan ham har bir fuqaro o‘zi yashab turgan hududning qonunlarini yaxshi bilishi zarur.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo‘ldan rivojlantirishning huquqiy kafolatidir.

Islom Karimov

2. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Islom Karimov

3. Konstitutsiya bizga inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday qilib qurish yo‘llarini ochib beradi.

Islom Karimov

4. “Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o‘tishdir” degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo‘lishiga olib boradi.

Islom Karimov

5. Bizning pirovard maqsadimiz – inson huquqlari har tomonlama himoya qilinadigan ma’rifatli jamiyat barpo etishdan iborat.

Islom Karimov

**“KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI”
deb nomlangan 8-9-sinf o‘quvchilari uchun
mo‘ljallangan tadbir ssenariysi**

Sahna bayramona bezatilgan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag‘ishlangan devoriy gazetalar, bannerlar osilgan; sahna markazida O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi va bayrog‘i.

(Uch marotaba chaqiruv qo‘ng‘irog‘i chalinadi. Sahna pardasi ochiladi. Parda ortida maktab formasida saf tortgan o‘quvchilar va 2 nafar boshlovchi).

1-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi!!!

(O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi yangraydi. Sahnadagi o‘quvchilar, boshlovchilar, tomoshabinlar o‘rnilaridan turib, o‘ng qo‘llarini ko‘ksilariga qo‘yadilar. Barcha madhiyani kuylaydi).

1-boshlovchi:Dunyo bor, bo‘lajak, mudom bor,
Har dilda bir yangi kalom bor,
Bu kunga yetganlar quvoning,
Sizlarga xush niyat – salom bor.

2-boshlovchi:Assalomu alaykum hurmatli ustozlar va murabbiylar.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum maktabimizning tinib-tinchimas, izlanuvchan o‘quvchilari.

2-boshlovchi:Mana bugun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” deb nomlangan tadbirimizda diydor ko‘rishib turganimizdan benihoyat xursandmiz.

1-boshlovchi:Bundan 24 yil muqaddam ya’ni 1991-yil 31-avgustda Islom Abdug‘aniyevich Karimov tomonidan yurtimiz mustaqil deb e’lon qilindi!

2-boshlovchi:Mustaqil diyorning oldida turgan birinchi vazifalardan biri xalqning haq-huquq, erkinlik va majburiyatlarini ta’minlovchi Konstitutsiyani qabul qilish edi.

1-boshlovchi:Yurtimizning har bir fuqarosini taqdiriga befarq bo‘lmagan holda 1992-yilning 8-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

2-boshlovchi:O‘zbek orzu qilgan oliy baxtdir bu,
O‘zbekka yarashgan toju taxtdir bu,
Konstitutsiyamiz nodir chinakam,
U biz uchun eng oliy hakam.

1-boshlovchi:Hozir O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning mazmun-mohiyatiga doir taqdimotga navbatni beramiz.

2-boshlovchi:Ma’ruzachi maktabning tarix fani o‘qituvchisi Muhammadaliyeva Navro‘za Abdujabborovna.

(Maktabning tarix fani o‘qituvchisi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning mazmun-mohiyatiga doir slayd yordamida ma’ruza qiladi).

Ma’ruza matni

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilindi va “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Unda belgilangan qoidalar amaliyotda bir yarim yil mobaynida sinovdan o‘tdi, so‘ngra O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasiga kiritildi.

Konstitutsiya loyihasini tayyorlash borasidagi barcha ishlar Prezidentimiz Islom Karimovning bevosita rahbarligida amalga oshirildi. Konstitutsiyaviy komissiyaning ustuvor vazifasi demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy qonun loyihasini tayyorlash edi. Loyihani tayyorlash chog‘ida Yevropa, Osiyo, Amerika mamlakatlarning konstitutsiyalari o‘rganib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarni inobatga olgan holda tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

23 yil davomida bosh qomusimizga bir necha bor tuzatish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan:

- ❖ 2003-yilning 24-aprelida XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar;

- ❖ 2007-yil 11-aprelda 89-moddaga va 93-moddaning 15-bandiga hamda 102-moddaning 2-qismiga tuzatishlar;

- ❖ 2008-yil 25-dekabrda 77-moddaning 1-qismiga o‘zgartirish;


- ❖ 2011-yilning 18-aprelida 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar;

- ❖ 2011-yilning 12-dekabrda 90-moddaning ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritildi.

Konstitutsiyamiz, avvalo, o‘zida milliy xususiyatlarimizni aks ettiradi, ikkinchidan, u jahon andozalariga mos keladi. Biz Asosiy qonunimizning har bir bandi, jumlası, ifodasi, so‘zi haqida o‘ylashimiz, uni tushunib olishimiz, unga amal qilishimiz zarur va shart.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir.

(Sahnaga 8 nafar o‘quvchi chiqadi va quyidagi sahkl asosida joylashadi).



1-o‘quvchi: O‘zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib,

2-o‘quvchi: hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglagan holda,

3-o‘quvchi: o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,

4-o‘quvchi: demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,

5-o‘quvchi: xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,

6-o‘quvchi: respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishini ta’minlashga intilib,

7-o‘quvchi: insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab,

8-o‘quvchi: fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida,

Barcha: o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining Konsititutsiyasini qabul qiladi.

1-o‘quvchi: Barcha fuqarolar Konsititutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga;

2-o‘quvchi: O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga;

3-o‘quvchi: atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga;

4-o‘quvchi: qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga;

5-o‘quvchi: voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘lik qilishga majburdirlar.

6-o‘quvchi: Vatan kelajagi yoshlar qo‘lida,

7-o‘quvchi: Degan g‘oyani biz olg‘a suramiz,

8-o‘quvchi: Qonun ila xalq o‘ng-u so‘lida,

Barcha: Xizmatiga doim tayyor turamiz.

1-o‘quvchi: Farzandlarimiz

2-o‘quvchi: bizdan ko‘ra

3-o‘quvchi: kuchli

4-o‘quvchi: bilimli

5-o‘quvchi: dono

6-o‘quvchi: va albatta

7-o‘quvchi: baxtli

8-o‘quvchi: bo‘lishlari shart.

Barcha: Islom Karimov.

(Sahnadagi o‘quvchilar musiqa sadolari ostida saf torrtib chiqib ketishadi).

1-boshlovchi: Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang — xalq bo‘l, elim!..

2-boshlovchi: Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang — xalq bo‘l, elim.

1-boshlovchi: Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo‘ygan narvon.
Bir mayizni qirqqa bo‘lgan bir tanu jon —
Kunlaringga qaytay desang — xalq bo‘l elim.

2-boshlovchi: Daryo bo‘lib jo‘shgin endi zavqi ulug‘,
Bayramingda sevinch ko‘z yoshingga qulluq,
Yurtim degan jasur Yurtboshingga qulluq,
Unga qanot bo‘lay desang — xalq bo‘l, elim.

1-boshlovchi: Bo‘lar elning bolalari bir-birin der,
Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo‘l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo‘l, elim, xalq bo‘l, elim, xalq bo‘l, elim!

2-boshlovchi: Hozirgi navbat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligini munosib nishonlash maqsadida maktabimizning iqtidorli o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan musiqiy dasturga.

(Maktabning iqtidorli o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan musiqiy dastur)

1-boshlovchi:Hozirgi navbat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – asosiy qonun hujjati ekanligini targ‘ib qiluvchi “Farmonbibining so‘nggi farmoni” deb nomlangan sahna ko‘rinishiha.

**“Farmonbibining so‘nggi farmoni”
deb nomlangan sahna ko‘rinishi**

Ijrochilar:

Farmonbibi – qaynona;

Sotti – sotqin kelin;

Nigora – kenja kelin;

Dovdir kelin;

Multfilm kelin;

Maqolchi kelin;

Sportchi kelin;

Lutfi – kelin.

Sahna o‘zbek xonadoni hovlisi sifatida bezatilgan. Sahna markaziga stol va ikkita stul qo‘yilgan. Sahna chetiga tuvakda gullar qo‘yilgan.

Erta tong. Atrofdan qushlarning ovozi eshitilmoqda. Farmonbibining kelinlari ertalabki nonushtaga hozirlik ko'rmqda: kimdir stolga dasturxon yozsa, kimdir choy damlab choynak va piyolalarni olib kelib qo'ydi, kimdir issiq non va sochiq keltirsa, yana kimdir idishlarda shakar va murabbo keltirdi, yana kimdir likopchada shirinliklar olib keldi.

Kelinlar stolni bezatib bo'lgach, bir joyga yig'ilishib bozorga borish va bozordan nimalar olish to'g'risida gaplashishga tushishdi. Dovdir kelin sahna ortidan dovdirab yurib chiqib keldi va stulga turtilib ketdi. O'zini bir o'nglab oldi-yu, so'ng cho'zilib gapira boshladi:

Dovdir kelin: – Oovsinlaaar!!!

Ovsinlar baravariga javob qaytarishadi.

Kelinlar: – Haaaa!

Dovdir kelin: – Meen ham gapiraay!

Kelinlar: – Gapiring! Gapiring! – *deb kelinlar yana bozor haqidagi gaplarini davom ettira ketishdi.*

Dovdir kelin yerga qarab turib, cho'zilib gapira boshladi:

Dovdir kelin: – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, haar bir shaaxs daam olish huquqiga egaa. Shuunday ekan bugun bozoorga boramiz-aa!

Kelinlar: – Haa boramiz, boraamiz ovsin – *deb yana gapni davom ettirishdi.*

Dovdir kelin dovdirab turaverdi.

Shunda sahnaga Sotti samovar ko'tarib chiqib keldi va samovarni yerga qo'ydi.

Sotti: – Hoy! Ovsinjonlar nima haqida gaplashyapsizlar?

Kenja kelin Nigora: – Voy ovsinjoon! O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida: “Bir shaxs bir

paytning o‘zida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosi bo‘lishi mumkin emas” deyilgan.

Sportchi kelin: – To‘ppa-to‘g‘ri.

Sotti: – O‘sha boradigan joyilaga-chi oyijonim bilan boramiz.

Kelinlar: – Obboo!!!

Nigora: – Shoshmanglar ovsinjonlar! Hammasi yaxshi bo‘ladi.

Sahnaga Farmonbibi kirib kela boshlaydi.

Sotti: – Tekislan!

Hamma kelinlar saf tortishdi va o‘ng qo‘llarini ko‘ksilariga qo‘yishdi. Sotti saf boshiga borib turdi.

Sotti: – Rostlan! Salom ber!

Hamma kelinlar: – Assalomu alaykum.

Farmonbibi: – Vaalaykum assalom.

Sotti bir qadam oldinga chiqadi.

Sotti: – Azimjon xonadonining bosh qo‘mondoni! Bugun tunda xonadonimizda hech qanday hodisa kuzatilmadi. Hisobotchi shpiyon kelin Sottixon.

Farmonbibi: – Shukur! Shukur! Tinch bo‘lsa shukur.

Sotti: – Erkin!

Hamma kelinlar Farmonbibining oldiga borib parvona bo‘lishadi. Farmonbibi Sottini imlaydi.

Sotti: – Ovsinlar!

Hamma kelinlar yana saf tortadi.

Sotti: – O‘ngga!

Kelinlar o‘ngga buriladi.

Sotti: – Qo‘shiq aytib qadam bos!

Kelinlar saf qo‘shg‘ini aytib, sahnadan chiqib ketadilar.

Kelinlar: – Oyijonim bor bo‘lsin,

Baxtimizga sog‘ bo‘lsin!

Oyijonim bor bo‘lsin,
Baxtimizga sog‘ bo‘lsin!
Oyijonim bor bo‘lsin,
Baxtimizga sog‘ bo‘lsin!...

Kelinlar ketishi bilan Sotti svotka topshira boshlaydi.

Sotti: – Oyijon! Bilasizmi? Bulariz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33, 54-moddalarini sizga qarshi ishlatishmoqchi.

Farmonbibi: – U moddalarda nima deyilgan ekan?

Sotti o‘ylanib turadi va stol tagidan daftarini oladi va o‘qiy boshlaydi.

Sotti: – Hozir oyijon. Ha mana. 54-modda: “Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi”.

Farmonbibi: – Keyingisiga o‘t!

Sotti: – 33-modda, oyijon: “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar” deyilgan.

Farmonbibi: – Sen bularni qayerdan olding?

Sotti: – Oyijon, bu meniki emas. Nigorani sumkasidan topib oldim, oyijon. Sumkasida turgan ekan, sekin bordim-de, olib qo‘ya qoldim.

Farmonbibi: – Nigora deysanmi? Bu kichkina kelinim chatoq chiqdi-da!

Sotti: – Ko‘rmaysizmi oyijon...

Barcha kelinlar yasanib, sekin bozorga ketmoqchi bo‘lib chiqib kelayotganlarida Sotti ularni ko‘rib qoladi:

Sotti: – Voy, ana oyijon! Kelinlar boshladi qo‘zg‘olonni!

Farmonbibi: – Hoy, hoy! Kelinlar! Qayoqqa?!

Kelinlar baravariga: – Bozorga oyijon.

Farmonbibi: – Bozorda nima bor? Pishirib qo‘yibdimi? Soliqni to‘lab qo‘ydinglarmi?

Kelinlar baravariga: – Qanaqa soliq?

Farmonbibi: – Sotti!

Sotti: – Labbay oyijon!

Farmonbibi gapir deganday boshi bilan kelinlarni ko‘rsatib Sottiga buyruq beradi. Sotti darrov daftarini olib ochadi.

Sotti: – Xo‘p bo‘ladi oyijon! 51-modda: “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburlirlar”.

Sotti huddi nimanidir qoyil qilganday o‘girilib ketadi. Farmonbibi multfilm keliniga qarab:

Farmonbibi: – Vooy o‘zim o‘rgilay, o‘zim o‘rgilay! Multfilm kelinimdan aylanib ketay. Eshilib-eshilib sumkani qayoqqa olib ketayapsiz?

Multfilm kelin erkanib, eshilib turadi.

Multfilm kelin: – Bozorga oyijon.

Farmonbibi: – Bozorgamish! Ha, bu qo‘lingizdagi og‘irlik qilmayaptimi?

Multfilm kelin: – Yo‘q, og‘ir emas! Og‘irmas, oyijon!

Farmonbibi: – Sotti ol!

Sotti yugurib kelib multfilm kelinning sumkasini tortib oladi.

Multfilm kelin: – Oyijooon! Bozordan poshnasi baland tufli olmoqchiydim-de!

Sotti sumkadan pulni oladi va sumkani qaytib beradi. Sotti pullarni sanay boshlaydi.

Sotti: – Hm! Poshnasi baland tufli kiyarmish!

Farmonbibi: – Poshnasi baland tuflini nima qilasiz? Shippakda zo‘rg‘a yurasiz-ku!

Multfilm kelin: – O‘g‘lizga chiroyli ko‘rinmoqchi edimda!

Farmonbibi: – O‘g‘limga chiroyli ko‘rinar emish! Ha meni ko‘zim bilan ko‘rsin, o‘g‘lim, chiroyli ko‘rinadi.

Multfilm kelin: – Oyijon! O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli” deb qo‘yilibdi.

Farmonbibi: – Hooo! “Mulkdor bo‘lishga” emish. Meni xonadonimda kelinlar supurgi bilan xokondoza mulkdor! O‘ting!

Multfilm kelin: – Oyijoon!

*Multfilm kelin sahnaning boshqa tomoniga o‘tib turib oladi.
Farmonbibi maqolchi keliniga qaraydi.*

Farmonbibi: – O‘zimni maqolchi kelinimdan aylanay. Sizam bozorgami?

Maqolchi kelin: – Haa!

Farmonbibi: – Bozorda nima qilasiz?

Maqolchi kelin: – Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim deganlaridek, qudam tug‘ilgan kunimda jemfer sovg‘a qilgan edilar, shuning uchun men ham qudamning tug‘ilgan kuniga kaattakoon sovg‘a olmoqchiman oyijoon!

Farmonbibi: – Haa! Yemog‘ni qusmog‘i bor deganlaridek, ko‘rpangizga qarab oyog‘ uzatsangiz bo‘lmaydimi?

Sotti stulda o‘tirib olib, yelpig‘ichini yelpib, gapni tasdiqlaydi.

Sotti: – Yashang oyijon!

Maqolchi kelin: – Bor tovog‘im – kel tovog‘im, bormasang – kelmasang o‘rtada sin tovog‘im deyishgan-ku, oyijoon!

Farmonbibi: – Gap bo‘lsa qop-qop, Ish bo‘lsa Samarqanddan top bo‘lib qolibsiz kelin. Pulingizni topshiring!

Maqolchi kelin: – Oyijon! O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega” deyilgan.

Farmonbibi: – Shundaymi? Ko‘p gapirmay topshiring pulni dedim-ku!

Maqolchi kelin: – Oyijooon!

Sotti: – Olib keling, olib keling ovsin.

Maqolchi kelin pulni Sottiga olib borib beradi va sahnaning boshqa tomoniga multfilm kelinning yoniga o‘tib turib oladi. Sotti pullarni sanaydi. Farmonbibi esa dovdir keliniga qaraydi.

Farmonbibi: – Do‘xtir kelinimdan o‘rgilay. Ha bundan balnitsani xidi anqiydi.

Dovdir kelin ikkita qo‘lini yon tarafga cho‘zib, birma-bir xidlab ko‘radi.

Farmonbibi: – Siz qayoqqa?

Dovdir kelin: – Boozoorga.

Farmonbibi: – Boozoorga?! Ha, bozorda nima qilasiz?

Dovdir kelin: – Akaadee...

Farmonbibi: – Tushundim!

Dovdir kelin: – Haar biir shaxs...

Farmonbibi: – Keyingisiga o‘t!

Dovdir kelin: – Boozoorgaa...

Farmonbibi: – Voy maqsadga o‘ting! Baraka topkur maqsadga!

Dovdir kelin xafa bo‘lib, sumkasini yelkasidan tushurib, Sotti tomon yuradi.

Dovdir kelin: – Bolalarimni kiyintirmoqchi edim-dee!

Farmonbibi: – Bolalaringizni o‘zimiz kiyintiramiz.

Dovdir kelin jahl bilan sumkani stolga qo‘yadi va tomoshabinlarga qarab tez gapiradi.

Dovdir kelin: – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”.

Hamma angrayib qoladi.

Sotti: – Vooy oyi!

Dovdir kelin: – Meen gapirdimmi?

Farmonbibi hayron qolib boshini qimirlatadi.

Farmonbibi: – Tezlanib ketdi-ya! Pul nimalarga qodir-a! O‘ting!

Dovdir kelin sumkasini Sottidan olib, sahnaning narigi tomoniga ovsinlarining yoniga borib turadi. Sotti pullarni sanaydi. Farmonbibi esa sportchi keliniga qaraydi.

Farmonbibi: – O‘zimni sportchi kelinimdan o‘rgilay! Siz qayoqqa?

Sportchi kelin: – Bozorga, oyijon!

Farmonbibi: – Ha, bozordan nima olasiz?

Sportchi kelin ikkita qo‘lini yonga cho‘zib ko‘taradi.

Sportchi kelin: – Gantel olgani oyijon! Gantel!

Farmonbibi: – Gantel bor edi-ku?!

Sportchi kelin: – Unisi yengil bo‘lib qoldi. O‘g‘lingizga berib yubordim.

Farmonbibi: – O‘g‘limga?! Oxiri o‘g‘limni ham qo‘shib ko‘tarib otib yubormasangiz bo‘lgani! Haa, yengillik qilgan bo‘lsa ikkita chelak, og‘irlik qilsa bitta chelak suvni to‘ldirib olib sep! Ana senga gantel, mana senga sport!

Sportchi kelin: – Oyijon! Hech qaysi soha mamlakatni sport kabi dunyoga tezda mashhur qila olmaydi.

Farmonbibi: – Bu ham Nigoraning gapimi?

Sportchi kelin: – Yo‘q oyijon! Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov so‘zlari.

Farmonbibi: – Haa! Shundaymi? To‘g‘ri gap. Lekin chaqqon kelin mahallani dong‘ini chiqaradi.

Sportchi kelin: – Oyijon! Bu kimning gapi?

Farmonbibi: – Farmonbibining gapi!... Sotti pulni olmaysanmi?

Sotti sportchi kelinni oldiga yugurib boradi. Sportchi kelin qo‘lini beliga qo‘yib Sottiga qarab jahl bilan bir qadam tashlaydi. Sotti qo‘rqib orqaga qaytadi.

Sotti: – Vooy oyijon qo‘rqaman bunizdan!

Farmonbibi: – Qo‘rqasan? Nimaga qo‘rqasan? Tishlab oladimi seni? Pulni ber!

Sportchi kelin shahdam yurib kelib, Farmonbibiga pulni beradi va sahnaning narigi tomoniga borib turadi. Farmonbibi pulni Sotti tomonga uzatadi. Sotti kelib pullarni oladi va sanaydi. Farmonbibi kelini Lutfiga qaraydi.

Farmonbibi: – O‘zimning uyatchan kelinimdan o‘rgilay! Uyalib-uyalib bir nimalar qilib qo‘yadi. So‘ylong‘iz!

Lutfi kelin: – Volidam men ham bozorg‘a boradurmen.

Farmonbibi: – Bozorda nima qiladursiz?

Lutfi kelin: – O‘z ustimg‘a yangi libos oladurmen.

Farmonbibi: – Libos olg‘ali aqchangiz bormi?

Sotti o‘rnidan turadi va ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yadi.

Sotti: – Volidam! Kecha Lutfixon mukofot puli olg‘ondur.

Farmonbibi: –Haa, Lutfixon! Tejog‘lig‘ning ishi – bejog‘lig‘dur, o‘rgilay!

Lutfi kelin: – O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Ularga ko‘ra inson va uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Farmonbibi: – Haaa! Barokallo, barokallo! Aqchangizni xazinabong‘a topshiring.

Lutfi sekin yurib borib, pulni Sottiga beradi. Sotti darhol pulni sanab oladi. Lutfi sekin yurib sahnaning boshqa tomoniga o'tib, ovsinlarining oldiga turadi. Sotti kenja kelin Nigoraga qaraydi.

Sotti: – Nigoraxon! Pulni olib keeling o'rgilay!

Nigora: – Bu pulga meni o'z rejalarim bor. Bunga lak, tush, pamada,...

Farmonbibi: – Hoy, hoy, hooy!!! Lak, tush, pamadamish!!! Mening xonadonimda kelinlar bunday narsalar ishlatishmaydi! Ular tabiiy go'zal!

Sotti: – Ha!

Sahnaning narigi tomoniga o'tgan kelinlar o'z ust-boshlariga qarab quvonishadi. Farmonbibi tomoshabinlarga qarab boshini chayqatadi va o'ylanib qoladi.

Farmonbibi: – Kenjatoyimga zakonchi kelin olib beraman deb sira o'ylamagan edim.

Nigora: – Bilardim, oyijon meni boshidan yoqtirmaganligingizni.

Farmonbibi: – Bilsang bo'пти, jim yur!

Nigora: – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga ko'ra “Har kim bilim olish huquqiga ega”. Kelinlaringizga o'z haq-huquqini bildirsam buni nimasi yomon oyijon?! To'g'rimi ovsinjonlar.

Kelinlar: – To'g'ri!

Farmonbibi: – Lekin bu xonadonda mening qonunlarim ustun!

Nigora: – Oyijon! O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga ko'ra “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega”. To'g'rimi ovsinjonlar?

Kelinlar: – Ha, to'g'ri, to'g'ri!

Farmonbibi: – Shunday deng! Demak, men sizlarning shaxsiy daxlsizliklaringizga putur yetkazdimmi?

Nigoradan tashqari hamma kelinlar Farmonbibining oldiga kelib, baravar javob qaytarishadi.

Kelinlar: – Yo‘q, oyijon! Yo‘q!

Farmonbibi: – Demak, men feodalman?!

Kelinlar: – Yo‘q, oyijon! Yo‘q!

Farmonbibi: – Demak, men yomon qaynonaman?!

Kelinlar: – Yo‘q, oyijon! Yo‘q!

Farmonbibi: – Demak, mening qonunlarim sizlarga yoqmayapti?!

Kelinlar: – Yo‘q, oyijon! Yo‘q!

Farmonbibi: – Demak...

Nigora: – Yo‘q, oyijon! Aslo unday emas. Lekin sizning qonunlaringiz Konstitutsiyaga ozgina zidroq-da! Masalan, 48-moddaga ko‘ra “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar” o‘yijon. To‘g‘rimi, ovsinjonlar?!

Kelinlar: – Ha, to‘g‘ri.

Farmonbibi uzoq o‘ylanib qoladi. Sahnada sukunat. So‘ng Farmonbibi Sottiga qaraydi.

Farmonbibi: – Sotti!

Sotti: – Labbay oyijon!

Farmonbibi: – Yoz! Oxirgi farmonim!!! Bugundan boshlab Konstitutsiyaga muvofiq kelinlarimning barcha haq-huquqlari bajarilsin!

Kelinlar: – Voy! Rahmat oyijon!

Farmonbibi: – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid barcha farmonlarim bekor qilinsin!

Kelinlar: – Voy! Rahmat oyijon! Rahmat!

Sotti: – Vooy oyijon! Men-chi?

Farmonbibi: – Sen vazifangdan ozodsan!

Sotti: – Rahmat, oyijon!

Barcha kelinlar xursand bo‘ladi.

Farmonbibi: – Sotti!

Sotti: – Labbay oyijon!

Farmonbibi: – Pullarni olib chiq! Bozorga boramiz.

Kelinlar: –Rahmat, oyijon!

Quvnoq musiqa yangraydi. Kelinlar raqsga tushib Farmonbibining atrofiga kelishadi. Farmonbibi kelinlar bilan birga raqsga tushadi va barchalari sahnadan chiqib ketishadi.

1-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag‘ishlangan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” deb nomlangan tadbirimiz o‘z nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi: Barchangizning o‘qish va ishlaringizga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Hayr, salomat bo‘ling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. Xalq ishonchi – oliy mas’uliyat. O‘zbekiston Prezidenti saylovi: qarorlar, murojaatlar.
3. Huquqiy yetuklik – barkamollikka eltadi: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2011-yil.
4. Bayramlarimiz: Sultonmurod Olim. – T.: “Ma’naviyat”, 2008-yil.

